

## **BARKAMOL AVLOD SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI**

**Yuldasheva Sayyoraxon Ilhomjon qizi**

O‘zMU 2 kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada barkamol avlod shaxsini shakllantirishning psixologik tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** g‘oya, barkamol shaxs, ta’lim, sog‘lom turmush tarzi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психологические принципы формирования личности зрелого поколения.

**Ключевые слова:** идея, всесторонне развитая личность, образование, здоровый образ жизни.

**Abstract:** This article discusses the psychological principles of the formation of the personality of the mature generation.

**Key words:** idea, comprehensively developed personality, education, healthy lifestyle.

Barkamol shaxsni shakllantirishda uzluksiz ta’lim tizimining o‘rni va ahamiyati benihoyadir. Shu jihatdan ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturining milliy modelida shaxsni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Demak, bugungi kunda barkamol avlod shaxsini voyaga yetkazish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Sog‘lom hayot, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom e’tiqod, barkamollik kabilar shaxs faoliyatining asosiga aylanadi. Shaxs faoliyatining mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo‘lish, tinch va farovon hayotni yaratish, ijtimoiy ma’naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar

asosiy o‘rin egallaydi. Shu sababli bugungi yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy ma’naviy merosimiz haqidagi ma’lumotlar rivojlanib bormoqda. Yoshlar ongida millat, milliy axloq, milliy g‘urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan qayg‘usi, Vatan sog‘inchi va shu kabi tushunchalar singdirib borish ularning milliy dunyoqarashini kengaytirish tarbiya jarayonining asosiy omillaridan hisoblanadi. Ularning o‘z faoliyatida jamiyat va davlatning ma’naviy muhitiga munosib hissa qo‘shishni o‘zining muqaddas burchi deb bilib, imon, e’tiqod, mehr, vatanparvarlik, do‘stlik insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr toqatlilik, saxiylik, milliy g‘urur kabi fazilatlarni o‘zlarida mujassam etmoqdalar. Bu mislsiz tengi yo‘q ishda psixologlarning, ta’lim sohasida xizmati benihoyat kattadir. Chunki, maktab psixologi o‘quvchilarni barkamol shaxs bo‘lib, yetishtirishda har ta’sir ko‘rsatadi. Psixolog o‘quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o‘rganib, unga ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lishi tarbiyaviy tadbirlarni o‘quvchilarning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirilishi, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘z bilimni boyitib borishi lozim.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga va mashqqa degan edi, ulug‘ olim Arastu. Ana shu g‘oyalarga asoslangan holda psixologlar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyada ulg‘anayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigitlarning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqiy va erkinligini e’tiborga olish;

- milliylikning o‘ziga xos an’ana, vositalarga tayanish, jahon madaniyatining ilg‘or tajribalariga asoslanish, o‘quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to‘laqonli bolalar yosh jihatlariga mos hayoti iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko‘ngil ochar va shunga o‘xshash tadbirlarni tashkil etishi lozim.

Demak, maktab amaliyotchi psixologi jamiyat hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi murakkab shaxs strukturasi ega bo‘lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Psixologning

tayyorgarligi va bilimlar integratsiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e'tiborga olish kabilar kuchli bo'lishi kerak. Yuksak saviyali zo'r mahoratli psixologlarga xalq orzusidagi barkamol shaxsni tarbiyalaydi. Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagogik olimlar barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. Abdulla Avloniy aytganidek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari najotiga aylangan". Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalambor ilmi, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi.

Behbudiy aytganidek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir". Ibn Sino ta'kidlaganidek: "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvvalo o'zing amal qil".

Albatta, bunda o'qituvchining bilimi, mahorati beqiyosdir. Amaliyotchi psixologning bilim darajasi sharqona fikr yurita bilishi, ish bilan harakatning birligi maktab o'quvchilarining ijodiy fazilatlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston"2017 486 bet.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010
3. Djurayev R.X, Inoyatova M.E. Iste'dodli farzand tarbiyasi. Ota onalar kitobi. Toshkent, 2013
4. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013